O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ODAMNING IMMUNITET TANQISLIGI VIRUSI KELTIRIB CHIQARADIGAN KASALLIK TARQALISHIGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida:

1. 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish Davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda Davlat dasturi deb ataladi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, 2018-yil 1-iyuldan boshlab OIV infeksiyasiga tashxis qo‘yish bilan shug‘ullanuvchi tumanlararo diagnostika laboratoriyalari hududiy OITSga qarshi kurashish markazlari tarkibiga kiritiladi va markazlarga ushbu laboratoriyalarni moliyalashtirish, moddiy-texnik ta’minlash hamda faoliyatiga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish yuklanadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamoat tashkilotlari faoliyati va hamkorligini muvofiqlashtirsin;

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni ajratsin;

kelgusi yillarda retrovirusga qarshi preparatlar va OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslarni davolash samaradorligi monitoringini olib borish uchun zarur bo‘lgan test-sistemalar bilan ta’minlashga Davlat budjetidan mablag‘lar ajratish bosqichma-bosqich oshirib borilishini nazarda tutsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda OIV infeksiyasi va qo‘shimcha kasalliklarga tashxis qo‘yish va ularni davolash uchun zarur bo‘lgan diagnostikumlar va test-sistemalarni mahalliy sharoitda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar kiritsin;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda Davlat dasturida belgilangan tadbirlar ijrosi ustidan monitoring olib borilishini va har

choraqda amalga oshirilgan tadbirlar haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobotlar taqdim etilishini ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Tashqi ishlar vazirligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grant mablag‘larini jalb etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rsin;

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda OIV infeksiyasining oldini olish, tashxis qo‘yish hamda davolash sohalarida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borsin, ilmiy va innovatsion tadqiqotlar natijalari sog‘liqni saqlash amaliyotiga tatbiq etilishini ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Adliya vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitasi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika kengashi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda bir oy muddatda OIV infeksiyasi yuqish xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar, xususan, mehnat migrantlari va ularning oila-a’zolari, shuningdek, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xodimlari orasida OIV infeksiyasining profilaktikasi bo‘yicha tushuntirish-targ‘ibot ishlarini hamkorlikda amalga oshirish shartligini nazarda tutuvchi tartib ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

6. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi aholi orasida OIV infeksiyasining oldini olish, tashxis qo‘yish va davolash masalalari bo‘yicha axborot-ma’rifiy ishlar olib borsinlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda bir oy muddatda OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha tarmoq rejasini tasdiqlasin va bajarilishini ta’minlasin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari:

davolash-profilaktika muassasalarini ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda, sterilizatsiya bo‘limlari va punktlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy apparatlar va asbob-anjomlar bilan to‘liq jihozlash uchun zarur mablag‘ ajratilishini nazarda tutsin;

davolash-profilaktika muassasalarini bir marotaba ishlatiladigan tibbiy asbob-anjomlar, test-sistemalar, diagnostikumlar va sarflovchi materiallar bilan ta’minlasin;

9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilda OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olishga qaratilgan Davlat dasturining ijrosi tahlili natijalari bo‘yicha 2019-yilda OIV infeksiyasiga qarshi kurashish sohasidagi kompleks chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga aniq takliflar kiritsin;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar hamda idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda ushbu qarordan kelib chiqqan xolda qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar taqdim etsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi R. Kasimov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Q. Akmalov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2018-yil 25-yanvar,
PQ-3493-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PQ-3493-son qaroriga
ILOVA

## 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish
DAVLAT DASTURI

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Ijromud datlari | Xaraj atlar | Moliyalas htirish manbalari | Ijrochilar | Amal ga oshirish mexaniz mi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. AHOLI VA ZARARLANISh XAVFI YUQORI BO‘LGAN GURUHLAR O‘RTASIDA OIV INFEKSIYASI PROFILAKTIKASI, TAShXIS QO‘YISh VA DAVOLASh ChORA-TADBIRLARINI YANADA TAKOMILLAShTIRISH** | | | | | | |
| 1. | OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi chora-tadbirlarning hududiy rejalarini qabul qilish, bunda quyidagilar:<br><br>OIV infeksiyasi bo‘yicha epidemiologik vaziyatni | 2018-yil 30-yanvargacha | — | — | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sog‘liqni | Ishchi guruhni tuzish.<br><br>Hududlardagi epidemiologik vaziyat, kasallanishning |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | barqarorlashtirish maqsadida uning keng tarqalishi, yuqish yo‘llarini to‘xtatish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishga urg‘u bergan holda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, aholining xabardorlik darajasini oshirishni hisobga olish;<br><br>mahalliy moliyaviy, kadrlar va moddiy resurslarni safarbar etish;<br><br>OIV infeksiyasi bilan bog‘liq muammolarning ijtimoiy, moliyaviy, yuridik, tibbiy va ma’naviy-ahloqiy jihatlarini hal etishga kompleks yondashish. | | | | saqlash vazirligi (A. Shodmonov) | ijtimoiy demografik jihatlarini, epidemiologik jarayonning harakatlantiruvchi<br><br>omillarini o‘rganish va tahlil qilish.<br><br>OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbir-larining hududiy rejalarini ishlab chiqish va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishish.<br><br>Hududiy rejalarni tasdiqlash. |
| 2. | Yashash joyiga qaytib kelganidan so‘ng migrantlarni konsultatsiyalar va OIVga test o‘tkazish bilan qamrab olish. | 2018-yil 30-yanvar<br><br>2018-yil 10-aprelgacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qilish qo‘mitasi (N. | Idoralararo ishchi guruhini tuzish.<br><br>Migrantlarni OIV infeksiyasiga test o‘tkazish uchun tibbiy muassasala |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Usmonbekov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (A. Xaitov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi (Sh. Javlonov), O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi (T. Norboyeva), Din ishlari bo‘yicha qo‘mita (A. Yusupov), O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi (Q. Kuranboyev). | rga majburiy yuborishni ta’minlashni nazarda tutgan holda Xatarli guruhlar o‘rtasida OIV infeksiyasi profilaktikasi bo‘yicha birgalikda ish olib borish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. |
| | | 2018-yil 10-maygacha | | | | Tasdiqlangan Tartibga asosan tegishli idoraviy buyruqlarni chiqarish. |
| | | Doimiy asosda | | | | Mahalla qo‘mitalari, profilaktika inspektorlari va tibbiyot xodimlarining qaytib kelgan migrantlar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish hamda ularning OIV infeksiyasiga |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | majburiy testdan o‘tishlarini ta’minlash borasida birgalikdagi ishlarini amalga oshirish. |
| 3. | Tibbiyot muassasalaridan tashqarida OIVni ixtiyoriy konsultatsiya va test bilan qamrab olishni kengaytirishning innovatsion usullari. | 2018-yil 15-martgacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | Quyidagi hududlarda OIVga test o‘tkazish uchun mahalliy avtomobillar negizida OIV konsultatsiyalari va testlari uchun texnik ixtisoslashuv va ko‘chma laboratoriyalarga bo‘l-gan talab-ehtiyojning asosini ishlab chiqish:<br>davlat chegarasining migrantlar o‘tadigan punktlarida;<br>ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan (konsertlar) sport musobaqalari, bozorlar va |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | boshqa) joylarda; |
| | | | | | | xatarli guruhlar vakillari to‘planadigan joylarda; |
| | | 2018-yil 25-sentabrgacha | | | | olis va borish qiyin bo‘lgan tumanlarda OITSga qarshi kurashish bo‘yicha mintaqaviy markazlarni ko‘chma laboratoriyalar bilan jihozlash uchun mablag‘larni 2019-yilgi Davlat budjeti loyihasiga kiritish. |
| 4. | Diskordant juftliklarda OIV manfiy shaxslar uchun retrovirusga qarshi preparatlar bilan o‘ziga xos profilaktika qilish. | 2018-yil 5-aprelgacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslarga davolanishni taqdim etish bo‘yicha Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining jamiyatga moslashtirish va protokolini tasdiqlash. |
| | | 2018-yil 25- | | | | 2019-yil va |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | sentabrgacha | | | | | kelgusi yillar uchun davlat budjeti s�etasiga kiritish uchun zarur mablag‘larda hisob-kitob olib borish. |
| 5. | OIV aniqlangan barcha OIV yuqtirganlarning tashxisi tasdig‘ini topgan paytdan boshlab o‘ziga xos davolashga (ART) bosqichma-bosqich o‘tish va dispanserlik kuzatuviga olish. | 2018-yil 5-aprelgacha | | | | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslarni Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining jamiyatga moslashtirish va davolanishni taqdim etish bo‘yicha protokolini tasdiqlash. |
| | | 2018-yil 15-dekabrgacha | | | | | Birinchi bosqich:<br><br>OIV infeksiyasini yuqtirgan barcha 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni davolash. |
| | | Keyingi yillarda | | | | | Ikkinchi bosqich:<br><br>OIV infeksiyasini yuqtirgan barcha 30 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | yoshgacha bo‘lgan shaxslarni davolash.<br><br>OIV infeksiyasini yuqtirgan barcha shaxslarni davolash. |
| 6. | Fuqarolik jamiyatini OIV infeksiyasiga qarshi kurash chora-tadbirlariga keng jalb etish. | 2018-yil fevral-iyun | 0,089 mln AQSh dollari | OITS, sil va bezgakka qarshi kurash Global jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Global jamg‘arma) mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov),<br><br>NNTlarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi<br><br>(O. Xusanov),<br><br>Din ishlari qo‘mitasi<br><br>(A. Yusupov) | Nodavlat notijorat tashkilotlarni OIV infeksiyasiga qarshi kurash sohasidagi profilaktik faoliyatga jalb etish bo‘yicha ular o‘rtasida ishlar olib borish.<br>Nodavlat notijorat tashkilotlarni OIV infeksiyasi profilaktikasi ishlarining metodlariga o‘rgatish.<br>Mamlakatning diniy konfessiyalar rahbarlarini axloqni shakllantirish, xavfli yurish-turish qoidalarini bartaraf etish, OIV |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | muammosi bo‘lgan insonlarga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lishni shakllantirish bo‘yicha axborot ishlariga jalb etish. |
| | | 2018-yil 1-dekabrgacha | | O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari | | Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun OIV infeksiyasiga qarshi kurash sohasidagi loyihalarga davlat grantlari ajratish. |
| 7. | OIV infeksiyasi profilaktikasi masalalari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini keng o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash uchun maxsus jamg‘arma tashkil etish. | 2018-yil 1-avgustgacha | — | — | Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev)<br><br>Adliya vazirligi | Tashabbus guruhini tashkil etish. |
| | | 2018-yil 1-oktabrgacha | | | (R. Davletov),<br><br>Sog‘liqni saqlash | Jamg‘arma ustav va boshqaruvni tasdiqlash. |
| | | Doimiy asosda | | | vazirligi (A .Shodmonov). | Mulk shaklidan qat’i nazar xo‘jalik subyektlarining ixtiyoriy ajratmalari hisobidan jamg‘arma |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | mablag‘larini shakllantirish va jamg‘armaning mablag‘laridan axborot kampaniyalarida foydalanish. |
| 8. | Aholi o‘rtasida profilaktika ishlarini olib borishda yangi yondashuvlar. | 2018-yil 1-sentabrgacha | | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari va jalb qilingan donorlik mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Xalq ta’limi vazirligi (U. Inoyatov), Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov), MTRK (A. Xodjayev), “O‘zbekkino” MA (F. Zokirov), MAA | OIV infeksiyasi masalasida individual va konfidensial konsultatsiya olish va OIVga test o‘tkazish zarurligini tushuntirish uchun OITSga qarshi kurash markazlari huzurida kunu tun ishlaydigan “Ishonch telefonlari”ni tashkil etish va ularning ishlashini ta’minlash. |
| | | Muntazam | | | | Umumiy aholi uchunOIV infeksiyasi, an’analar va mentalitetni inobatga olgan holda o‘zini |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Muntazam | | | (A. Ko‘chimov), O‘zbekiston yoshlar ittifoqi (K. Quranbayev), “O‘zbekiston havo yo‘llari” MA (U. Ro‘ziqulov), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ (A. Ramatov) | tutish qoidalari, OIV infeksiyasi bilan yashovchi insonlarga tolerant munosabatda bo‘lish muammolarini qo‘shgan holda ssenariylar ishlab chiqish va teleseriallarni chiqarish. Milliy mentalitet va an’analarni inobatga olgan holda OIV infeksiyasini profilaktika qilish, yoshlar va o‘smirlar uchun “Tengga-teng” tamoyili asosida axloqiy tarbiya masalalarida yoshlar ishtirokida tele va radio ko‘rsatuvlar tayyorlash. |
| 9. | O‘quvchi yoshlar o‘rtasida OIV infeksiyasining profilaktikasi | 2018-yil 1-sentabrgacha | | | | O‘rta maktablarda hayotiy ko‘nikmal |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | masalalari bo‘yicha axborot-ta’lim ishlari. | | | | Xalq ta’limi vazirligi<br><br>(U. Inoyatov),<br><br>Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi<br><br>(I. Madjidov), | arga o‘rgatish dasturlariga sog‘lom turmush tarziga ko‘maklashuvchi mustahkam hayotiy pozitsiyalarni shakllantirish masalalarini kiritish. |
| | | 2018-yil 1-sentabrgacha | | | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi<br><br>(K. Quranbayev) | Oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturiga jinsiy yo‘l bilan yuqadigan OIV infeksiyasi va infeksiyalarini profilaktika qilishga urg‘u bergan holda xavfsiz hayotiy xulq-atvor ko‘nikmalarini o‘qitishni kiritish |
| | | Doimiy | | | | Kollej o‘quvchilarini faol hayotiy pozitsiya bilan tengdoshlar o‘rtasida “Tengga-teng” tamoyili |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | asosida OIV infeksiyasini oldini olish bo‘yicha ishlarga jalb qilish. |
| 10. | Aholini OIV infeksiyasini profilaktika qilish choralari to‘g‘risida xabardor etish bo‘yicha tarmoqlararo va sektorlar rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2018-yil 1-martgacha | 100,0 mln so‘m | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (A. Xaitov), Xalq ta’limi vazirligi (U. Inoyatov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov), MTRK (A. Xodjayev), | OIV infeksiyasi bilan yashovchi shaxslarga nisbatan tolerant munosabatda bo‘�ish masalalari bilan birga aholi o‘rtasida shu jumladan, migrantlar, endigina turmush qurganlar, homiladorlar, yoshlar o‘rtasida OIV infeksiyasini oldini olish bo‘yicha axborot-ma’rifiy dasturlarni amalga oshirish. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | NA “O‘zbekkino” (F. Zokirov), MAA (A. Ko‘chimov), O‘zbekiston yoshlar ittifoqi (K. Quranbayev) Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, (Sh. Javlonov), O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi (T. Norboyeva) | |
| 11. | OIV infeksiyasi profilaktikasi sohasida tushuntiri� ishlarini olib borish usullarini tubdan qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha dasturni tasdiqlash. | 2018-yil 15-fevralgacha | | Ijrochilarning mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), | Manfaatdor vazirliklar va idoralar, fuqarolik jamiyatining turli xil institutlari va OIV mutaxassislari |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2018-yil 1-martgacha | | | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi (Q. Kuranbayev), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (A. Xaitov), “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK (U. Ro‘ziqulov), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ (A. Ramatov) | orasidan ishchi guruh tuzish. Tushuntirish ishlari o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. |
| 12. | OIV infeksiyaga testdan o‘tkazishni qamrab olishni kengaytirish, OIV infeksiyasi yuqish xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar orasida profilaktika chora-tadbirlarini olib borish. | 2018-yil 30-yanvargacha | 1,16 mln AQSh dollari | Global jamg‘armam ablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov) | “Ishonch kabinetlarini” ularning uzluksiz ishlashini ta’minlash maqsadida tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan buyumlar va OIV infeksiyasiga ekspress testlar bilan ta’minlash. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 13. | OIV infeksiyasini spetsifik profilaktika qilish va davolash uchun retrovirusga qarshi preparatlar bilan ta’minlash. | 2018-yil 30-yanvargacha | 2,38 mln AQSh dollari | O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), TIV (A. Kamilov) | VICh infeksiya bilan yashovchi shaxslarga ARV-terapiyani uzluksiz taqdim etish uchun retrovirusga qarshi preparatlarga mablag‘lar ajratish: |
| | | 2018-yil 30-yanvargacha | 2,37 mln AQSh dollari | Global jamg‘armamablag‘lari | | Respublikaga retrovirusga qarshi preparatlar olib kirish. |
| 14. | OIV infeksiyasi bilan yashovchi shaxslarda qo‘shimcha virusli, bakterial, zamburug‘lar tufayli yuzaga keladigan kasalliklarni profilaktika qilish va davolash. | 2018-yil 30-yanvargacha | 811,0 mln so‘m | O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | Milliy protokollarga muvofiq qo‘shimcha kasalliklarni profilaktika qilish va davolash uchun preparatlar bilan ta’minlashga mablag‘lar ajratish. |
| 15. | OIV infeksiyasi yuqish xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar uchun jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalarni sindrom davolashni taqdim etish. | 2018-yil 5-martgacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), | Ishchi guruhi tuzish. |
| | | 2018-yil 5-aprelgacha | | | | Sog‘liqni saqlash |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2018-yil 25-iyungacha<br><br>2018-yil 25-sentabrgacha | | | Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | vazirligining buyrug‘ini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>OITSga qarshi kurash markazlari tizimida “Do‘stona kabinetlar” tashkil etish.<br>2019-yil Davlat budjetiga qo‘shish uchun zarur mablag‘larni hisob-kitoblar qilish. |
| 16. | OIV infeksiyasini yuqtirgan onalardan tug‘ilgan 6 oygacha bo‘lgan bolalarni quruq sutli qorishmalar bilan ta’minlash. | 2018-yil 20-fevralgacha<br><br>2018-yil 1-martgacha | 3 000,0 mln so‘m | O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar | OIV infeksiyasini yuqtirgan onalardan tug‘ilgan 6 oygacha bo‘lgan bolalarni quruq sutli qorishmalar bilan uzluksiz ta’minlash to‘g‘risida tartibni ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha ishchi guruhni tashkil etish.<br>Sog‘liqni saqlashnin |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2018-yil 10-martgacha | | | hokimliklari | g hududiy boshqarmalari tomonidan quruq sutli qorishmalarga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.<br>Quruq sutli qorishmalarni yetkazib berish va tarqatish. |
| 17. | 18 yoshgacha bo‘lgan OIV infeksiyali bolalarni kasallikning qaysi klinik bosqichda bo‘lishidan qat’iy nazar tashxis qo‘yilgan paytdan boshlab ijtimoiy nafaqa bilan ta’minlash. | 2018-yil 20-martgacha | | | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-sentabrdagi 256-son qarori asosida tayinlanadigan OIV infeksiyasi bilan kasallangan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ijtimoiy nafaqalar berishni takomillashtirish bo‘yicha Sog‘liqni saqlash vazirligining buyrug‘ini ishlab chiqish va tasdiqlash. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Doimiy | Ehtiyojga muvofiq | O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari | | OIV infeksiyasi bilan kasallangan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ijtimoiy nafaqalarni to‘lashni ta’minlash. |
| | | Tasdiqlangan rejaga muvofiq | | | OITSga qarshi kurash respublika va hududiy markazlari | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-sentabrdagi 256-son qarorining 18 yoshgacha bo‘lgan OIV infeksiyali bolalarga ijtimoiy nafaqalar to‘lash talablariga rioya qilish ustidan tizimli monitoring olib borish. |
| **II. OIV INFEKSIYASI PROFILAKTIKASI VA DIAGNOSTIKA QILISh HAMDA DAVOLASh MASALALARI BO‘YIChA NORMATIV-HUQUQIY BAZANI QAYTA KO‘RIB ChIQISh** | | | | | | |
| 18. | Jazoni ijro etish muassasalaridagi OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslar va OITS bilan kasallanganlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishning uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha idoralararo hamkorlikning samaradorligini | 2018-yil 1-aprelgacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov),<br><br>Ichki ishlar vazirligi | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llagan holda Jazoni ijro etish |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan OIV infeksiyasini yuqtirgan va OITS bilan kasallanganlarga retrovirusga qarshi terapiyani taqdim etish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomani (26.12.2007-yilda 1752-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2018-yil 30-iyungacha | | | (P. Bobojonov), Adliya vazirligi (R. Davletov) | maskanlarida OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslarga tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda ketma-ketlikni ta’minlash, tahlil qilish va o‘zaro harakatlar mexanizmlarini baholash uchun idoralararo ishchi guruhni tuzish.<br>Qo‘shma qaror loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. |
| 19. | Butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining zamonaviy tavsiyalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining OIV infeksiyasini profilaktika, diagnostika qilish va davolash masalalari bo‘yicha qabul qilingan buyruqlarini yangilash. | 2018-yil 10-fevralgacha<br>2018-yil 10-maygacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov) | Ishchi guruhi tuzish.<br>O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining yangilanga |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | n buyruqlarini ishlab chiqish va ularni tasdiqlash |
| **III. OITSGA QARShI KURASh MARKAZLARI VA OIV INFEKSIYASINI DIAGNOSTIKA QILISh BO‘YIChA TUMANLARARO LABORATORIYALARINING MODDIY-TEXNIK BAZASINI MUSTAHKAMLASh** | | | | | | |
| 20. | OITSga qarshi kurash tumanlararo diagnostika laboratoriyalari va hududiy markazlar laboratoriyalari moddiy-texnik uskunalarini mustahkamlash. | 2018-yil 30-yanvargacha<br>2018-yil 30-noyabrgacha | 2,0 mln AQSh dollari | Global jamg‘arma mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vairlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Zarur diagnostika asbob-uskunalarini xatlovdan o‘tkazish, ro‘yxatini shakllantirish va tasniflash bo‘yicha komissiya tuzish.<br>Tegishli diagnostik laboratoriyalarga diagnostika qilish uskunalarini o‘rnatilgan tartibda sotib olish, taqsimlash va o‘rnatish. |
| 21. | Laboratoriyalarni OIV infeksiyasini diagnostika qilish uchun zarur miqdordagi test-sistemalari va limfotsitlarni (SD-4) aniqlash uchun, shuningdek, OIV infeksiyasini davolashni monitoring qilish uchun (polimeraz-zanjir | 2018-yil 30-yanvargacha<br>2018-yil 25-aprelgacha | 0,979 mln AQSh dollari | O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), | Ehtiyojni aniqlash, moliyalashtirishga talabnomani tayyorlash.<br>2018-yil uchun test-sistemalari va reagentlarn |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | reaksiya) reagentlar bilan ta’minlash. | | | | Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev) | i sotib olish va taqsimlash. |
| 22. | Avtotransport olishga talabnoma loyihasini ko‘rib chiqish uchun taqdim etish. | 2018-yil 1-aprel | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), “O‘zavtosanoat” AJ (U. Salimov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Respublika va hududiy OITSga qarshi kurash markazlarining amaldagi avtomobil parkini keyinchalik uni modernizatsiya qilish takliflari bilan xatlovdan o‘tkazish. |
| **IV. OIV INFEKSIYASI SOHASIDA KADRLAR VA ILMIY SALOHIYATNI MUSTAHKAMLASh, XALQARO HAMKORLIKNI KENGAYTIRISh** | | | | | | |
| 23. | Respublika va hududiy OITSga qarshi kurash markazlarining shtat tizimlarini turdosh mutaxassisliklarni (ftiziatr, psixolog, farmatsevt) kiritishni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish. | 2018-yil 25-iyungacha<br>2018-yil 25-avgustgacha | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov), Bandlik va mehnat | Ishchi guruh tuzish va OITSga qarshi kurash markazlarining yangi shtat normativlarini ishlab chiqish.<br>Yangi shtat normativlarini ko‘rib |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | munosabatlari vazirligi | chiqishga taqdim etish. |
| | | 2018-yil 25-sentabrgacha | | | (A. Xaitov) | OITSga qarshi kurash markazlarining yangi shtat normativlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatni tayyorlash. |
| | | 2018-yil 25-noyabrgacha | | | | Yangi shtat normativlarini tasdiqlash. |
| 24. | OIV infeksiyasini diagnostika qilish, davolash va profilaktika qilish sohasida dunyo tajribasini o‘rganish va tatbiq etish uchun xalqaro ekspertlar ishtirokida respublika konferensiyasini tashkil etish va o‘tkazish. | 2018-yil 13-14-aprel | — | Ijrochilar, xalqaro va xorijiy tashkilotlar ijrochilari mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash va�irligi<br><br>(A. Shodmonov),<br><br>TIV<br><br>(A. Kamilov),<br><br>Davlat investitsiyalar bo‘yicha qo‘mitasi<br><br>(A. Axmedxodjayev),<br><br>xalqaro va xorijiy tashkilotlar | Tashkiliy qo‘mitani tuzish, ishtirokchilar ro‘yxatini aniqlash va dasturni tasdiqlash.<br><br>Konferensiyani tajriba almashish, aloqalar o‘rnatish, OIV infeksiyasi sohasida qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida o‘tkazish. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 25. | Respublika OITSga qarshi kurash markazi huzurida OIV infeksiyasini profilaktika, diagnostika qilish va davolash sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion ishlanmalarni muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy kengashni tashkil etish. | 2018-yil 10-iyulgacha | | Davlat grant loyihalari mablag‘lari va ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov) | Ilmiy kengash tarkibi va Nizomini tasdiqlash. |
| | | ko‘rib chiqish uchun talabnomalar tushishi bilan | | | | OIV infeksiyasini profilaktika, diagnostika qilish va davolash sohasida amaliy innovatsion va fundamental ilmiy loyihalarni muntazam ko‘rib chiqish. |
| | | 2018-yil 20-noyabrgacha | | | | Yil yakuni bo‘yicha ilmiy va innovatsion ishlanmalarni joriy etish natijalarining samaradorligining muhokamasini kengaytirilgan ilmiy Kengashda muntazam ko‘rib borish. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 26. | Epidemiologik, laborator va davolash jihatlarini hisobga olgan holda, OIV infeksiyasi aniqlangan holatlarni monitoringini ta’minlash bilan, shuningdek, real vaqt rejimida preparatlar va diagnostikumlarning harakatlanishi va mavjudligi bilan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining korporativ tarmoq qismi sifatida monitoring qilish axborot tizimini yaratish. | 2018-yil 1-avgustgacha | 0,05 mln AQSh dollari | Global jamg‘arma mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Axborot kommunikatsiyalari va texnologiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov) | OIV infeksiyasini monitoring qilish axborot tizimini yaratish bo‘yicha texnik topshiriqni ishlab chiqish. |
| | | 2018-yil 10-dekabrgacha | | | | Axborot dasturini ishlab chiquvchi kompaniyani tanlab olishni belgilangan tartibda o‘tkazish. |
| 27. | Epidemiologik, laborator va davolash jihatlarini, shuningdek, real vaqt rejimida preparatlar va diagnostikumlarning harakatlanishi va mavjudligini hisobga olgan holda OIV infeksiyasi aniqlangan holatlarni monitoring qilish axborot tizimini joriy etish va doimiy ishlashini ta’minlash. | 2018-yil 1-iyungacha | | | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov) | OIV infeksiyasiga qarshi kurashish sohasida xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning kompyuter-ofis texnikasi bilan ta’minlanganligini xatlovdan o‘tkazish. |
| | | 2018-yil 1-iyulgacha | 300,0 mln so‘m | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | | Kompyuter-ofis texnikasini olishga talabnoma berish. |

**2018-yil Davlat dasturi chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun jami xarajatlar:**

**4,211** mlrd so‘m va **9,028** mln AQSh dollari

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **shundan:** | — | mlrd so‘m | — | AQSh dollarida |
| O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari | — | **3,811** | **—** | **3,359** |
| xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘lari | — | 0 | — | 5,669 |
| budjet�an tashqari jamg‘arma mablag‘lari | — | 0 | — | 0 |
| ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | — | 0,4 | — | 0 |
| mahalliy budjet mablag‘lari, | — | 17,307 | — | 0,015 |
| **shu jumladan:** | | | | |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | | 1,420 | | — |
| Andijon viloyati | | 3,781 | | 0,015 |
| Buxoro viloyati | | 0,475 | | — |
| Jizzax viloyati | | 1,127 | | — |
| Qashqadaryo viloyati | | 1,317 | | — |
| Navoiy viloyati | | 0,480 | | — |
| Namangan viloyati | | 3,174 | | — |
| Samarqand viloyati | | 1,044 | | — |
| Surxondaryo viloyati | | 1,355 | | — |
| Sirdaryo viloyati | | 0,400 | | — |
| Toshkent viloyati | | 0,400 | | — |
| Farg‘ona viloyati | | 0,749 | | — |
| Xorazm viloyati | | 0,604 | | — |
| Toshkent shahri | | 0,980 | | — |

*LexUZ sharhi*

*Ilova norasmiy tarjima.*

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018-y., 07/18/3493/0617-son)*